



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION RIVOJLANISH
VAZIRLIGI

“БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИ ВА ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ МЕРОСИНING АҲАМИЯТИ”

мавзусидаги республика онлайн

илмий-амалий анжумани

МАТЕРИАЛЛАРИ



*Alisher
Navoiy*

580

5 февраль 2021 йил
Бухоро



<i>Yuldasheva Dilorom Nigmatovna</i> MIR ALISHER NAVOIY: BILIM O‘ZLASHTIRISHNING GRADUAL BOSQICHLARI.....	361
<i>Yusupova Dildora Yunus qizi, Yuldasheva Dilorom Nigmatovna</i> «NAVOIY – NON...».....	365
<i>Teshaev Nutfullo Nasrulloevich</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ФАЛСАФАСИДА ИНСОН МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИ.....	369
<i>Umriniso Turaeva</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИ БЕГАЛИ ҚОСИМОВ ТАЛҚИНИДА.....	373
<i>Zoyirova Go'zal Nematovna</i> NAVOIYNI SUYGAN EL.....	377
<i>Omarova Gavhar Sadikovna, Alimboyeva Sabohat</i> ALISHER NAVOIYNING ILMIY MEROSI- YOSHLAR MA'NAVIY YUKSALISHI VA TARBIYASIDAGI ANAMIYATI.....	381
<i>Ruzigul Qodirova</i> АЛИШЕР НАВОИЙ БАЙТЛАРИ ШЕЪРШУНОС ОЛИМ НИГОҲИДА	383
<i>Oltinoy Kurbonova</i> НАВОИЙГА ЭҲТИРОМ.....	386
<i>Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich</i> “DEVONI FONIY”NI TOJIKZABON MAKTABLARIDA O‘QITISH MUAMMOLARI.....	389

ALISHER NAVOIYNING ILMIY MEROSI- YOSHLAR MA'NAVIY YUKSALISHI VA TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Omarova Gavhar Sadikovna,

BuxDU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Alimboyeva Sabohat

BuxDU 1- bosqich talabasi

Alisher Navoiy badiiy ijod bilan birga ilmiy faoliyatni teng olib borgan buyuk mutafakkirdir. Uning adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, din tarixi va nazariyasiga doir ko'plab asarlari muhim ma'lumotlarni qamrab olganligi, aniq dalillarga asoslanganligi va obyektiv xulosalarga egaligi bilan bugungi kun ilm-fani uchun ham nihoyatda qimmatlidir.

Alisher Navoiy adabiyotshunoslikka doir uch asar yaratgan bo'lib, uning "Mufradot" asari hijriy 890, milodiy 1485-yilda fors-tojik tilida yaratilgan.[Navoiy,1997:13] Manbalarda asar nomi "Risolai mufradot"(Makorim ul-axloq), "Mufradot dar fanni muammo"(Qomus ul-a'lom","Tuhfai Somiy") ayrim qo'lyozmalarda "Risolai muamma" shaklida ham qayd etilgan. Asarning muqaddimasida esa bu haqida shunday deyiladi: "Va chun in muhaqqar dar in fan ba mushobihai "alif" va "be" bud, musammo ba "Mufradot" namud" (Mazmuni: Ushbu arziyas asar bu (muammo) fanda "Alifbe"ga o'xshagani sababli "Mufradot" deb ot qo'yiladi). Asarda keltirilgan misollar asosan fard-baytlar shaklida bo'lganligi hamda shoir kamtarlik bilan muammo sohasining boshlang'ich ma'lumotini endi egallaganini ta'kidlagani, shuningdek, bu kitob muammo ilmini endi o'rganayotgan kishilar uchun mo'ljallab yozilgani sababli "Mufradot" deb nomlangan. Alisher Navoiy "Risolai muammo" asarida o'zidan avval yaratilgan asarlarning murakkabligi va ulardagi kamchiliklar haqida gapirib, o'z asarida iloji boricha ularni bartaraf qilishga intiladi. Shoir risolaning kirish qismida g'oyat kamtarlik bilan uni yaratishdan maqsad olimlar e'tiboriga havola qilish emas, balki keng xalq ommasi, xususan, yosh avlodga muammo sirlarini o'rgatish ekanligini ta'kidlagan: "Bu muxtasar asarning risolalar qatoriga kirish qobiliyati va bu kaminada uni olimlar ko'zlariga ko'rsatish salohiyati bo'lmasa ham, bolalarga muammo amallarini o'rganishlarini osonlashtirish uchun yarashi mumkin".

Abdurahmon Jomiy ushbu asarni nihoyatda yuksak baholab, o'g'li Ziyovuddin Yusuf uchun darslik sifatida tavsiya etadi. Asarda 3 amal, 15 qism va 48 ta uslub qoidalari va ular bilan bog'liq holda 121 ta muammo va uni yechish usullari ko'rsatilgan. Risola oddiylikdan murakkablik tomonga borish tamoyiliga izchil rioya qilingan. Dastlab muammo ilmiga ta'rif berilib, so'ng tushunilishi oson bo'lgan qoidalar va misollar keltirilgan. "Mufradot" asarida yoritilgan qoida va

amallar devonlardagi boshqa turkiy va forsiy muammolarni yechishda ham amaliy qo‘llanma vazifasini bajaradi. Umuman olganda Alisher Navoiyning "Mufradot" asari muammoning turli uslub qoidalari ixcham va tushunarli tilda bayon qilib berilganligi bilan adabiyotshunoslikda muhim ilmiy asar hisoblanadi.

Alisher Navoiyning adabiyotshunos olim sifatidagi faoliyatini ko‘rsatib beruvchi yana bir asar bu "Majolis un-nafois" tazkirasidir.[Navoiy,1997:12] Tazkirada XV asrda yashab, faoliyat yuritgan 459 shoir haqida ma‘lumot keltiriladi. Alisher Navoiy tazkiraning muqaddimasida asarning tarjibiy qismi va nomlanishi haqida shunday yozadi:"...chun bu maqsudg‘a yetildi, oni sekkiz qism etildi har qismi bir majlisg‘a mavsum bo‘ldi va majmuig‘a "Majolis un-nafois" ot qo‘yildi. Tazkiradagi shoirlar majlis quyidagicha taqsimlangan: 1-majlisda 46 ta, 2-majlisda 91 ta, 3-majlisda 175-ta, 4-majlisda 72-ta, 5-majlisda 21-ta, 6-majlisda 31 ta, 7-majlisda 22 ta va 8-majlisda Husayn Boyqaro bilan bog‘liq ma‘lumotlar keltirilgan. Tazkirada shoirlarning bilim darajasi, fe‘l-atvori, axloqi bilan bog‘liq xususiyatlar ham alohida ko‘rsatilgan. Har bir shoirga berilgan tavsif uning ijodidan namuna keltirish bilan asoslangan. Tazkira XV asr ilmiy nasrining go‘zal namunasi hisoblanadi. "Majolis un-nafois" Navoiyning hayoti va faoliyatini o‘rganishda ham muhim avtobiografik manba hisoblanadi. Tazkira orqali shoirning qaysi hududlarda bo‘lgani, kimlar bilan uchrashgani, ustozlari, do‘stlari, yaqin kishilari, hamsuhbatlari, qarindoshlari, farzandi o‘rnidagi shaxslar haqida ma‘lumot olish mumkin. "Majolis un-nafois" boshqa xalqlar tillariga ham tarjima qilinib, tazkirachilikning rivojiga samarali ta‘sir ko‘rsatgan. Ushbu tazkiraning XV asr oxiri XVI asrning boshlarida ko‘chirilgan bir necha nusxasi Vena, Parij, Boku, Sankt-Peterburg, Toshkent va boshqa joylarda saqlanmoqda.

A.Navoiyning "Mezon ul-avzon"asari 1492-1493-yillarda yaratilgan.[3] Navoiy turkiy tildagi adabiyotshunoslik masalalariga bag‘ishlangan Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog‘a"asari bilan tanish bo‘lmagani uchun aruz nazriyasiga doir qonun-qoidalarni turkiy tilda ilk marta bayon qilayotganini alohida ta‘kidlaydi, xususan "g‘araz bu maqolotdin va maqsud bu muqaddimotdin bu erdikim, chun turk alfozi bilakim nazm voqi‘ bo‘lubdur, anga zobitaye va qonune yo‘q erkondur..." deb yozarkan, turkiy tilda aruz qonun-qoidalariga oid maxsus asar yo‘qligini aytib o‘tadi. "Mezon ul-avzon"da jami 19 bahr, 160 vazn keltirilgan bo‘lib, vaznlar uchun tanlangan misollar asosan muallifning o‘z ijodi mahsulidir. Asar tarkibida Xoja Ismat Buxoriy va Xusayn Boyqaro ijodidan ham baytlar uchraydi. "Mezon ul-avzon"turkiy aruzshunoslikka qo‘shilgan munosib hissa bo‘lib, o‘z davridayoq zamondoshlari tomonidan yuksak baholangan. Xondamir "Makorim ul axloq"da risolaga yuksak baho berib, Navoiyning iste‘dodi va badiiy mahoratini ko‘rsatib beruvchi asar ekanligini, avvalgi risolalarda

keltirilmagan doiralarni kiritilganligini uning aruzshunoslikdagi eng katta xizmati sifatida e'tirof etadi.

A.Navoiyning barcha asarlari insonlarni komillik, yaxshilik sari yetaklovchi asarlar hisoblandi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim-tarbiya bobida Navoiy asarlariga murojat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Navoiy asarlarida ezgulik, vatanparvarlik, mardlik, mehr-oqibat kabi fazilatlar hamisha yetakchi o'ringa qo'yilgan. Uni hazrat Navoiy o'z asarlarida haqiqatni shunday ta'sirchan ifodalaydiki, buni o'qigan inson xayrli ishlar qilishga shoshiladi. Ota-onaga bo'lgan cheksiz hurmat ham shoir ruboiylarida o'z aksini topgan:

Boshni fido ayla ato qoshig'a
Jismni qil sadqa ano qoshig'a
Tun kuningga aylagali nur fosh
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Haqiqatda A.Navoiy ijodida yaxshilikka da'vat, yomonlikdan uzoq bo'lish, o'zini o'zi tarbiyalash g'oyasi mujassam. Shu sababdan ham bir necha asrlardan buyon buyuk ajdodimizning benazir asarlari xalqimiz tomonidan sevib o'qiladi va bugun ham tobora ommalashmoqdaki, ularda ilgari surilagan g'oyalar ahamiyatini asli yo'qatgani yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT. 20 jildlik. T.:Fan, 1997. 13-jild.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. MAT. 20 jildlik. T.: Fan, 2000. 16-jild.
3. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. MAT. 20 jildlik. - T.:Fan, 2000. 16-jild.
4. Alisher Navoiy. Mufradot. MAT. 20 jildlik. -T.:Fan, 2000. 20-jild.
5. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik. Toshkent: "TAMADDUN", 2018. -520 b.

АЛИШЕР НАВОИЙ БАЙТЛАРИ ШЕЪРШУНОС ОЛИМ НИГОҲИДА

Рўзигул Қодирова,

БухДУ Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси

Таниқли адабиётшунос олим Нўъмон Раҳимжонов замонавий ўзбек шеърятининг улкан тадқиқотчиси сифатида танилган. Айни вақтда олим унинг илмий асосларини ўзбек мумтоз адабиётининг кўп асрлик анъаналарида кўради. Шу жиҳатдан янги ўзбек шеърятининг юксалишида улуғ мутафаккир Алишер Навоий ижоди улкан сарчашма вазифасини ўтаб келади. Нуктадон олим бугунги шеърятни таҳлил қилар экан, ана шу сарчашмадан сув ичган ижодкорлар, хусусан, улуғ мутафаккир ижодига ҳам тўхталади.